YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA MUSIQANING O‘RNI.

Buxoro davlat universiteti Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasi 12-1vokal-21guruh talabasi
Asadova Nihola Akbarovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarning tarbiyasida-musiqaning o’rni va ahamiyati to’g’risida to’liq yoritib berilgan. Musiqadagi so’zlarning va tovushlarning ma’nolari haqida ham aytib o’tilgan. Ayni paytda respublika miqyosida yoshlarning ta’lim va tarbiya olishiga hukumat tomonidan katta e’tibor qaratilmoqda. Ko’plab pedagog izlanuvchilarning ham asosiy maqsadi ta’lim va tarbiyanining o’quvchilar tomonidan qabul qilinishi, ko’rsatgichini oshirishga qaratilgan bo’lib, ushbu maqolada milliy musiqaning yoshlarlar ongini o’stirish va tarbiyalashdagi o’rni nazariy va qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: milliy musiqa, ohang, tarbiya, hayotiy, insoniy, jamiyat, ta’lim

Musiqa tarbiyasi - insonning ruhiy olami, nozik his - tuyg‘ulari, ichki kechinmalari va ijtimoiy faoliyatini boshqarishda yosh avlodga shodlik va ilhom baxsh etib, ularning aqliy, ahloqiy rivojlanishiga, badiiy va ma’naviy tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ajdodlarimiz asrlar davomida musiqaning qudratiga tahsinlar o‘qiganlar. Ular o‘z munosabatlarida, mehnat faoliyatlarida, hayotda undan bahramand bo‘lganlar, ezgu niyatlarini amalga oshirganlar. Ayniqsa, kattalar hamisha o‘z farzandlarini uylab yashaganlar, mehnat va ijod bilan shug‘ullanganlar. Bu jarayon ularda bola va uning takdiri to‘g‘risida qayg‘urish majburiyatining tabora chuqurlashuvi tarzida kechib, talay qo‘shiqlarning to‘qilishiga sabab bo‘lgan. Chaqaloqni parvarish etish mas’uliyati behad katta bo‘lgan. Onalar ana shu murakkab ma’suliyatni o‘z zimmalariga olganlar. Bu yo‘lda qo‘shiq ularga madadkor bo‘lgan. Bolalarni qo‘shiq bilan uxlatganlar, yig‘lasa kuylab ovutganlar, erkalaganlar, hatto qo‘shiq bilan chaqaloqqa dahldor rasm - rusumlarni bajarganlar. Shu tariqa allalar, aytim - olqishlar, ovutmachoqlar, erkalamalar, qiziqmachoqlar yuzaga kelgan. Shuni ham aytish zarurki, allalar, aytim olqishlar, ovutmachoqlar, erkalamalar, qiziqmachoqlarning ijod etilishida barcha kattalar: otalar, buvilar, bobolar, amma-yu xolalar qatnashgan bo‘lsalarda baribir, onalar etakchi o‘rinda bo‘lganlar. Shu bois, musiqa bolalarga faol emotsional ta’sir ko‘rsatib, ularning ruhiyatini va fiziologiyasini o‘zgartira oladi. Chunki, musiqa hayotni va kelajakni aks ettiradi. Inson musiqani ona allasi orqali idrok etib, umrbod musiqadan zavq oladi va madad topadi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng, milliy - ma’naviy qadriyatlarimiz qatorida ko‘p asrlik musiqiy merosimizga ham alohida e’tibor berila boshlandi. Endilikda xalqimizning ajoyib xilma - xil va bir - biridan go‘zal mahalliy musiqiy an’analaridan, mumtoz musiqaning yuksak durdonalaridan, maqom namunalaridan ma’naviy zavq olish, ruhiy bahramand bo‘lish imkoniga ega bo‘ldilar. Bu an’analar esa uzoq davrlar mabaynida shakllangan bo‘lib ular xalqimizning turli sharoitlaridagi turmush tarzi, mehnat mashg‘ulotlari, urf odat va bayramlari kabi jarayonlar bilan bog‘liqdir. Shu bois, barcha o‘quv fanlari qatorida musiqiy ta’limda ham davlat ta’lim standartining joriy etilishi milliy musiqiy meroslardan to‘laqonli foydalanish imkoniyatini beradi. Milliy musiqa ta’limining asosiy maqsadi barkamol avlodni milliy musiqa me’rosimizga vorislik qiladigan, bilimli, sog‘lom yoshlarni tarbiyalash va ularni Ona - Vatanga bo‘lgan mehru muhabbatini oshirishdan iborat. Shu bilan birgalikda har bir o‘quvchining musiqiy iqtidorini, san’atga bo‘lgan ishtiyoqini yanada oshirish musiqa ta’limining asosiy

vazifasidir. Mazkur maqsadni amalga oshirishda ta'lim mazmuni va o'qitish uslubiyotini takomillashtirishda musiqa ta'limining milliy, an'anaviy va hozirgi zamon yutuqlariga hamda ilg'or tajribalarga ijodiy tayanish maqsadga muvofiqdir. Respublika umumta'lim maktablari va Oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim tarbiya jarayoni ham shaklan, ham mazmunan jahon andozalariga yaqinlashtirilmoqda. Jumladan, o'quv rejalari dasturlari, darsliklar va boshqa qo'llanmalar qayta ishlanib takomillashtirilmoqda. Barkamol avlod tarbiyasiga jiddiy e'tibor berish, ularni musiqiy merosimizga hurmat hissini muhabbatga, qiziqishga, mehrga aylantirish musiqiy ta'lim oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Musiqa o'qituvchisi o'z kasbiga va bolalarga mehr qo'ygan madaniyatli, keng dunyo qarashli, mohir ijrochi, musiqa san'atiga kasbiy qiziqishda bo'luvchi, kishilar bilan ishlay oladigan, yaxshi tashkilotchi, san'atning hamma turlari, ularning umumiy ta'rifi va tarixi bilan tanish bo'lishi, xalq ta'limi sohasida musiqiy cholg'u asbobi, dirijyorlik, musiqa tarixi, qo'shiq kuylash sirlari, vokal xor malakalari haqida darslar bera oladigan bilimli, tajribali, xonanda, dirijyor, jo'rnavozchi, bir so'z bilan aytganda musiqa nazariyotchisi va musiqa asboblarida mohr ijrochi bo'lmog'i lozim. U davlat ta'lim standarti asosida dars ishlanmalarini va xo'jjatlarini yozuvchi, musiqa madaniyati darslarini innavasion pedagogik texnalogiyalar asosida tashkil eta olishi zarur. Tabiiyki, odob – gahloq o'qituvchi shaxsning eng muhim fazilati sanaladi. Musiqa o'qituvchisi ham odobli, tarbiyali, madaniyatli va o'quvchilarga nisbatan mehribon murabbiy bo'lishi, jamiyatning ilg'or shaxsi bo'lishga intilishi, davr talabini tushunish, san'atimiz va madaniyatimiz istiqbolini his eta olishi, yuksak musiqa madaniyatiga ega faol targ'ibotchi bo'lishi lozim. Bundan tashqari, musiqa o'qituvchisi mutaxassisligini egallagan har bir shaxs musiqa o'qituvchisi bo'lish bilan birga "San'atkor" hamdir. Musiqa o'qituvchisi o'z fanini jon dildan sevishi, bolajonlarni hurmat qilib, mehr bilan musiqa darslarini olib borishi o'z faoliyatida pedagogika, psixologiya, musiqa uslubiyoti etika va nafosat tarbiyasini uyg'unlashtira olishi milliy musiqamiz qonuniyatlarini, madaniy merosimizni, yosh avlod ongiga to'g'ri va sodda qilib etkaza olishi musiqa o'qituvchisi oldiga qo'yilgan vazifalar jumlasiga kiradi. Hozirgi zamon musiqa o'qituvchisi pedagogik muloqat ustasi bo'lishi, har qanday vaziyatda ham pedagogik ta'sir usullaridan unumli foydalanish qobiliyatga ega bo'lmog'i lozim. Shuningdek, musiqa o'qituvchisi ilmiy tafakkur egasi, ilg'or tajribalar shaydosi, izlanuvchan - ijodkor bo'lib, musiqa o'qitishning yangi shakl va usullarini kashf etishga intiluvchan bo'lishi talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kholmuradovna R. U., Obidovna R. M. Social norms, sanctions and personality //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-2 (99). – С. 115-118.

2. Рамазонова У. Х., Сайфуллаева О. М. Развитие чувства ритма у детей //Проблемы науки. – 2021. – №. 1 (60). – С. 49-51.

3. Ramazonova U. X., Esanova M. J. An'anaviy xonandalik rivojida maqomlarning o'rni //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 496-501..

4. Ramazanova O. K., qizi Mustaqimova G. G. Formation and Development of National Musical Traditions //european journal of innovation in nonformal education. – 2022. – Т. file:///C:/Users/user/Downloads/Telegram Desktop/Бехруз Болтаев (2).rtf2. – №. 1. – С. 336-339

5. Рамазонова У. Х., Эсанова М. Ж. Подготовка молодых певцов к ансамблевому выступлению //Наука, техника и образование. – 2021. – №. 2-1 (77). – С. 88-91.

6. Kholmurodovna U. R. Formation of publicistic performing skills in singing. – 2021.

7.Ramazanova U. H., Muhamadova M. The spiritual impact of traditional sound exercises on the minds of students. – 2022.

8. Ramazanova O. K., Shukurov M. Historical development of status. – 2022.

9.ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАУКЕ ОБ ОСНОВАХ ТЕХНИКИ ПЕНИЯ.Угилой Холмуродовна Рамазанова, Мафтуна Бахадировна Давронова. 2023/12/15 International conference on multidisciplinary science Том1Номер 6 Страницы 94-96

10. ВНЕДРЕНИЕ И ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ВСОЗНАНИИ СТУДЕНТОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ. Угилой Холмуродовна Рамазанова, Малика Курбановна Нематова 2023/12/15 International conference on multidisciplinary science Том 1 Номер 6 Страницы 97-99

11.Behruz BoltayevHamidovich INTERPRETATION OF THE METHODS OF BUKHARA SHASHMAKOM AND THE FUNDAMENTALS OF MAKOM. *Academia Science Repository*, *4*(04), 1063–1066. Retrieved from http://academiascience.com/index.php/repo/article/view/90

12. BehruzBoltayevHamidovich. (2023). AL-FARABI AND IBN SINA'S CLASSIFICATION OF THE FOUNDATIONS OF THE THEORY OF "IYKUT" METHODS IN ORIENTAL MUSIC EDUCATION. *Academia Science Repository*, *4*(04), 102–104. Retrieved from http://academiascience.com/index.php/repo/article/view/414

13.Boltayev B. H. The content and methodology of the process of establishing the voice of students in singing //МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКАИТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯИПРАКТИКА. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 179-188.

14.Boltayev B. H. Buxoroshashmaqomidoyrausullariijrolaritalqini //TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 67-74.

15.Boltayev B. H. O 'ZBEK MILLIY QO 'SHIQCHILIGINING QADR TOPISH XUSUSIYATLARI //Journal of Universal Science Research. – 2023. – Т. 1. – №. 12. – С. 312-318.

16.Samieva M. BUKHARA PERFORMANCE METHOD A FACTOR FOR DEVELOPING THE MORAL QUALITIES OF ADOLESCENT STUDENTS //" ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. – 2022. – С. 191-194.

17.Samiyeva M. A., Ramazonov A. V. O 'ZBEK MUMTOZ MUSIQASI-O'QUVCHILAR QIZIQISHINI SHAKLLANTIRISH OMILI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 31-36.

18. Azimovna S. M. et al. THE BUKHARA PERFORMANCE STYLE IS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF MORAL QUALITIES OF TEENAGERS //Zeta Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 04. – С. 1067-1071.

19. Мустафоев Б. И., Самиева М. А. БУХАРСКИЕ ДРЕВНИЕ МУЗЫКАЛЬНЫЕ ГРУППЫ-СРЕДСТВО ОБРАЗОВАНИЯ //European Science. – 2021. – №. 2. – С. 26-28.

20. Ortiqov, E. . (2023). Musiqa Madaniyati Ta'limida Musiqiy Savodxonlik Faoliyatinin Tutgan O'Rni. *International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses*, 106–112. Retrieved from https://conferenceseries.info/index.php/ICMRITA/article/view/835

21. Взгляды восточных мыслителей на узбекскую народную музыку.УХ Рамазонова - Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 2023

22. O'ZBEK MUMTOZ MUSIQASIDA SHASHMAQOMNING O'RNI VA AHAMIYATI
O Farangiz - TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY …, 2022

23. Важность использования инновационных технологий в науке об основах техники пения. Угилой Холмуродовна Рамазанова, Мафтуна Бахадировна Давронова 2023/12/15 International conference on multidisciplinary science 1 694-96

24. Внедрение и применение инновационных технологий всознании студентов в образовательном процессе. УХ Рамазанова, МК Нематова - International conference on multidisciplinary science, 2023

25. Преподавание ответвлений шашмакома на уроках традиционного пения как педагогическая проблема. УХ Рамазанова, МД Эсанова - International conference on multidisciplinary science, 2023

26.Ражабов Тухтасин Ибодович, Ибодов Уктам Расулович ОБЕСПЕЧЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО НАСЛЕДИЯ В ОБУЧЕНИИ ПЕСНЯМ БУХАРСКОГО ДЕТСКОГО ФОЛЬКЛОРА НА УРОКАХ МУЗЫКИ // Вестник науки и образования. 2020. №21-2 (99). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/obespechenie-natsionalnogo-naslediya-v-obuchenii-pesnyam-buharskogo-detskogo-folklora-na-urokah-muzyki (дата обращения: 26.10.2023).

27.Rajabov T. I., Ibodov O. R. O'zbek Xalq Musiqa Merosda O'quvchilarni Vatanparvalik Ruhida Tarbiyalash Vositasi //IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 139-145.

28. Ortiqov O. R. MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR JARAYONIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI (OLIY TA'LIM MUSSASALARI MISOLIDA) //Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – С. 1130-1135.

29.Ortiqov O. R. MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR JARAYONIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI (OLIY TA'LIM MUSSASALARI MISOLIDA) //Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – С. 1130-1135.

30. БОЛТАЕВ Б. Х. ПРОБЛЕМЫ НАУКИ //ПРОБЛЕМЫ НАУКИ Учредители: Олимп. – №. 4. – С. 98-100.

31. Hamitova S. B., Gulzira N. AN'ANAVIY XONANDALIKNI O 'QITISHNING DOLZARB MASALALARI //International conference on multidisciplinary science. – 2024. – Т. 2. – №. 5. – С. 114-117.

32. Qo'chqorova U. D., Hamitova S. B. MAQOM SAN'ATINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI ORNI //International conference on multidisciplinary science. – 2024. – Т. 2. – №. 5. – С. 105-109.

33. Hamitova S. B. AN'ANAVIY XONANDALIK VA UNING RIVOJLANISH TARIXI //International conference on multidisciplinary science. – 2024. – Т. 2. – №. 5. – С. 110-113.